QASHQADARYO VILOYATI SHAHRISABZ SHAHAR HOKIMINING

QARORI

2025-yil 27-oktabr | 221-4-209-Q/25 | Shahrisabz shahar hokimligi

Shahrisabz shahridagi aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 9-bobi hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan 2026-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 21[1]-moddalariga asosan

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 4-avgustdagi PF-126-son Farmoniga asosan:

xo‘jalik yurituvchi subyektlar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 3 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan qo‘llanilishi;

budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan

shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan hamda odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 7 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan tatbiq etilishi belgilanganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Shahrisabz shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi hamda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining shaharhududidagi tashkilotlar bo‘yicha 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarini belgilash to‘g‘risidagi **quyidagi** takliflari ma’qullansin:

xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan davlat tashkilotlarida majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining yetti foizidan oshmagan miqdorda hamda xodimlar soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining uch foizidan oshmagan miqdorida kelgusi yil uchun 117 ta ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish, jumladan:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 6 foiz (7 kishi);

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun 10 foiz (12 kishi);

kambag‘al oilalar reestridagi oilalarning a’zolari uchun 52 foiz (61 kishi);

muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun 24 foiz (28 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun 4 foiz (5 kishi);

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun 4 foiz (4 kishi) miqdorida ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantiriladi.

3. 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish maqsadida **quyidagilar:**

davlat tashkilotlari (budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati **1-ilovaga** muvofiq;

xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari:

zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida yigirma besh foizi miqdorida zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining tayyorligini yil boshlanishidan oldin o‘n kundan kechiktirmay ta’minlaydi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar Shahrisabz shaharKambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qiladi;

ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlanadi, bu haqda Shahrisabz shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng 10 kundan kechikmay xabardor qiladi;

ishga joylashtirish to‘g‘risida Shahrisabz shaharKambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar axborot taqdim etadi.

Zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarini saqlash shartlari O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 40-moddasiga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta’minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-son Qaroriga muvofiq aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo‘lgan shaxslarni ish o‘rinlarining belgilangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilish uchun ish beruvchilarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya mablag‘lari to‘lab berilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni 3-, 13-, 34-, 38-, 39-, 40-, 41-moddalariga asosan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga eng kam miqdordagi ish joylarini yaratish yuzasidan qabul qilingan mazkur Qarorni bajarmaganlik uchun ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomning 21-bandi, 2-qismiga asosan, muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha Shahrisabz shahar hokimining qarori bajarilmaganligi uchun jarima to‘lash tashkilotni zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini yaratish bo‘yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

8 Shahrisabz shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (Sh.Raxmonov):

besh kun muddatda ushbu qaror nusxasini 1- va 2-ilovalarda ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin;

aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha Shahrisabz shahar hokimining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortish ta’minlansin.

9. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb- saytiga joylashtirilsin.

10. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari A.Uzoqov zimmasiga yuklatilsin.

11. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Shahrisabz shahar hokimi **Sh.Buriyev**

Shahrisabz shahar hokimining
2025-yil 27-oktabrdagi
221-4-209-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Shahrisabz shahrida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari *(budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar)* **tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli**
RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilot STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shunda n, nogironligi bo‘lgan shaxslar soni	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan: Nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar	jazoni ijro etish muassasa-laridan ozod qilingan shaxslar	odam savdosidan jabrlangan shaxslar
JAMI:			**6349**	**174**	**105**	**7**	**12**	**51**	**26**	**5**	**4**
1	15-umumiy o'rta ta'lim maktabi	203087572	105	0	2	0		1	1		
2	"YANGI KESH DEHQON (OZIQ-OVQAT) BOZORI" mas'uliyati cheklangan jamiyati	205198401	23	0	1	1					
3	SHAHRISABZ	203555	76	0	2	0		1	1		

	SHAHAR 2-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	583									
4	11-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	207027714	29	1	1	0		1			
5	Shahrisabz davlat muzey-qo`riqxonasi	202146056	106	4	3	0		1	1	1	
6	SHAHRISABZ SHAHAR 21-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	203101547	55	1	1	0		1			
7	Shahrisabz shahar 3-sonli oilaviy poliklinikasi	203219399	154	3	3	0	1	1	1		
8	"SHAHRISABZ VINO-AROQ" aksiyadorlik jamiyati	200672734	276	1	1	0				1	
9	20-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	207005021	49	4	1	0		1			
10	SHAHRISABZ SHAHAR 4-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	203094059	81	2	1	0		1			
11	Shahrisabz Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	200673510	110	5	2	0	1	1			
12	SHAHRISABZ SHAHAR 18-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	203226644	56	3	1	0		1			
13	SHAHRISABZ	202282	176	7	3	0		1	1		1

	SHAHAR 13-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	269									
14	SHAHRISABZ SHAHAR 22-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	203544748	57	4	1	0		1			
15	25-DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	207028784	42	1	1	0		1			
16	1-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	203087612	149	1	2	0		1	1		
17	20-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	202782628	67	2	2	0	1	1			
18	SHAHRISABZ SHAHAR 8-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	202631205	71	3	2	0		1	1		
19	28-DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	207029933	41	0	1	0			1		
20	2-DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	207005045	54	0	1	0		1			
21	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	207265672	41	3	1	0				1	
22	SHAHRISABZ SHAHAR 17-SONLI UMUMIY	203226629	85	0	2	0		1	1		

	O`RTA TA`LIM MAKTABI										
23	8-sonli umumiy tipdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	207028776	25	2	1	0		1			
24	SHAHRISABZ SHAHAR 9-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	203097308	55	1	1	0			1		
25	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo`mitasining Qashqadaryo viloyat boshqarmasi Shahrisabz shahar bo`limi	207268430	82	2	2	0		1	1		
26	30-DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	305673496	23	1	1	0		1			
27	SHAHRISABZ SHAHAR TIBBIYOT BIRLASHMASI	207267234	1846	53	9	3	1	2	1	1	1
28	SHAHRISABZ SHAHAR 2-SON BOLALAR MUSIQA VA SAN`AT MAKTABI	203824944	61	1	2	0		2			
29	14-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi	203081945	117	1	2	0		2			

30	6-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	202314274	71	2	2	0		1	1		
31	SHAHRISABZ SHAHAR 20-SON BOLALAR MUSIQA VA SAN`AT MAKTABI	207243914	64	4	1	0	1				
32	SHAHRISABZ SHAHAR BARKAMOL AVLOD MARKAZI	306304502	52	4	1	0		1			
33	30-DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	305673496	23	1	1	0		1			
34	SHAHRISABZ SHAHAR TIBBIYOT BIRLASHMASI	207267234	1846	53	9	3	1	2	1	1	1
35	SHAHRISABZ SHAHAR 2-SON BOLALAR MUSIQA VA SAN`AT MAKTABI	203824944	61	1	2	0		2			
36	14-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi	203081945	117	1	2	0		2			
37	6-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	202314274	71	2	2	0		1	1		
38	SHAHRISABZ SHAHAR 12-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	202374564	54	0	3	1		1	1		

39	29-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti	207028333	33	1	1	0		1			
40	SHAHRISABZ SHAHAR 16-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	203101523	109	2	4	0	1	2	1		
41	SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI	306578691	420	10	5	1	1	1	1		1
42	SHAHRISABZ SHAHAR 11-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	305672933	89	1	3	0	1	1			1
43	SHAHRISABZ SHAHAR 31-UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	305672933	34	0	1	0		1			
44	21-DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	207071693	39	0	1	0		1			
45	3-DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	207028357	43	3	1	0			1		
46	18-DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	207005084	52	2	1	0			1		

47	10-umumiy o`rta ta`lim maktab-internati	206809904	67	3	2	0		1	1		
48	SHAHRISABZ SHAHAR 03-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	202654707	112	4	2	0		1	1		
49	Qashqadaryo ixtisoslashtirilgan san'at maktab-internati	202379644	73	3	1	0			1		
50	14-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	207005077	100	2	2	0		1	1		
51	SHAHRISABZ DAVLAT 1-IXTISOSLASHTIRILGAN UMUMTA`LIM MAKTAB-INTERNATI	202356673	86	1	2	0		1	1		
52	33-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	307964630	61	3	1	0		1			
53	SHAHRISABZ SHAHAR MADANIYAT BO`LIMI Davlat muassasasi	207265847	51	1	1	0			1		
54	SHAHRISABZ SHAHAR SPORT MAKTABI	207268866	48	3	1	0		1			
55	16-DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM	207028769	23	1	1	0	1				

	TASHKILOTI										
56	SHAHRISABZ SHAHAR 19-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	203226715	66	3	1	0		1			
57	Shahrisabz shahar 1-sonli oilaviy poliklinikasi	203237449	120	1	3	0	1	1		1	
58	19-DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	207005038	40	2	1	0		1			
59	SHAHRISABZ SHAHAR 5-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	202624553	77	1	2	0		1	1		
60	13-DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	207005014	50	7	2	0		1	1		
61	QASHQADARYO VILOYATI KASBIY KO`NIKMALAR MINTAQAVIY MARKAZI	305561937	67	1	3	1	1	1			
62	SHAHRISABZ SHAHAR 7-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	202708978	86	2	2	0	1	1			

Shahrisabz shahar hokimining
2025-yil 27-oktabrdagi
221-4-209-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Shahrisabz shahrida 2026 yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar (*davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno)*** tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli**
RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilot STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:			
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		Nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar
JAMI:			**1411**	**20**	**12**	**0**	**0**	**10**	**2**
1	"SADO" mas`uliyati cheklangan jamiyati	200673606	175	2	3	0		3	
2	"BI-SAY" mas`uliyati cheklangan jamiyati	305876987	489	8	3	0		3	
3	"HISORAKGIDROQURILISH" mas`uliyati cheklangan jamiyati	200705793	747	10	6	0		4	2